

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi


№ BD.24/14-5/3.19

2024 yil « 12 » 08

«TASDIQLAYMAN»

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
rektori O.A.Ataniyazova

2024 yil « 12 » 08



BOLALAR KARIOLOGIYASI
MODUL DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	- Sog'liqni saqlash
Ta'lim yonalishi:	60910100	-Stomatologiya

Nukus – 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili 2024-2025	Semestr 7-8	Kreditlar 3.5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili qorag'apog, o'zbek, rus		Xaftadagi dars soatlari 30
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Bolalar kariesologiyasi	72	54	126
2. 1. Fan dasturining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni			
<p>Ushbu modul dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Modul dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadbir etib, talabani nazariy ma'lumotdan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fanomlarda bajarishga o'rgatib va o'rtirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda mustaqil ravishda bemorlarni tashxislash va qabul qilishga zamin yaratib beradi. Modul dasturining maqsad va vazifalarini yechimini yakunida talaba gorizontal va vertikal integratsiya jarayonlarida olgan bilim va amaliy ko'nikmalarni klinik uyg'unlashtirib, yetuk, raqobabardosh, mustaqil klinik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan umumiy amaliyot stomatologi bo'lib shakllanadi.</p> <p>Mazkur modul QVP (qishloq vrachlik punktlari), ambulatoriya, poliklinika va uyushgan jamoa (bog'cha, maktab) joylardagi stomatologiya kabinetlarida ishlash qobiliyatiga ega, terapevtik yo'nalishi stomatologik kasalliklarni (karies, uning asoratlari, nokaries kasalliklar) tashxis qilib, birinchi yordam ko'rsata oladigan, davolash va profilaktika tadbirlarini rejalashtirib, amalga oshira oladigan umumiy vrach- stomatologlar tayyorlashda faol ishtirok etadi. Tibbiy kimyo, biofizika, anatomiya, gistologiya, mikrobiologiya, fiziologiya, patologik fiziologiya, klinik restavratsion stomatologiya, ortopedik stomatologiya propedevtikasi, stomatologik kasalliklar profilaktikasi modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bolalar kariesologiyasi moduli barcha klinik modullar uchun jumladan, klinik endodontiya, parodontologiya, bolalar jarrohlik stomatologiyasi, ortodontiya modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.</p>			

2.1. Fanning maqsadi - stomatologiya yo'nalishida talim olayotgan talabalarga karies, pulpit, periodontit va nokaries kasalliklarining bolalar yoshida o'ziga xos xususiyatlarini, ularni tashxislash, qiyoslash va bugungi kun talablari asosida endodontiya usullarini qo'llab davolash hamda profilaktika qilish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

2.2. Fanning vazifalari:

- aholi o'rtasida ko'p uchraydigan asosiy stomatologik kasalliklarni tarqalishini, epidemiologiyasini, etiologiyasini, profilaktikasini o'rgatish;
- keng tarqalgan stomatologik kasalliklar: karies va uning asoratlari (pulpit, periodontit va h.k.)ni, nokaries kasalliklarni davolashning zamonaviy, samarali usullarini ishlab chiqish va profilaktik choratadbirlarni qo'llash usullarini amaliyotga joriy qilish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- bolalar yoshida ko'p uchraydigan asosiy stomatologik kasalliklarning o'ziga xos klinik kechishini o'rganish, o'ziga xos davolash va profilaktika usullarini takomillashtirish va stomatologiya amaliyotida qo'llashni joriy qilish.

2.3. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qayiladigan talablar:

7 semestr Talaba:

- bolalar yoshida uchraydigan asosiy stomatologik kasalliklardan karies va uning asoratlari, nokaries kasalliklar;
 - ularga tegishli klinik belgilar, subektiv, obektiv ma'lumotlar;
 - qiyosiy tashxislash, davolashning zamonaviy samarador usullari;
 - tishlarni anatomik shaklini tiklashning zamonaviy usullari;
 - og'iz bo'shlig'i a'zolari ko'rigi;
 - birinchi stomatologik yordam;
 - bor mashinani ulash va manbadan uzish;
 - stomatologik kreslo bilan ishlash;
 - borlarni farqlash, ularni turli dastaklarga fiksatasiya qilish;
 - ko'rik asbob uskunalarini farqlash va texnika xavfsizligiga rioya qilish
- hugilda tasavvurga ega bo'lishi:**
- og'iz a'zolarini, tishlar qatorini ko'rigin o'tkazishni;
 - karies kovagini charxlashni;
 - ularga kerakli shakl berishni;
 - tibbiy ishlov berish, plombalashni;
 - sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni bilishi va ulardan foydalana

- olishi;*
- o‘choqli demineralizatsiyani aniqlash;
 - karies kovagiga tibbiy ishlov berish;
 - karies kovagini charxlab shakllantirish **malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak.**
- 8 semestr Talaba:**
- o‘quv, ilmiy va malumot adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, amaliy ko‘nikmalarni mustaqil bajarish, test va vaziyatli masalalarni yechish;
 - pulpiti tasnifi, etiologiyasi, patogenezi;
 - pulpiti turlari, bolalarda klinikasi;
 - bolalarda pulpiti davolash usullari;
 - periodonti tasnifi, etiologiyasi, patogenezi;
 - periodonti turlari, bolalardagi klinikasi;
 - bolalarda periodontiti sut va doimiy shakllanmagan tishlarni davolash usullari;
 - pulpiti va periodonti kasalliklarni profilaktika chora-tadbirlari, usullari
- haqida tasavvurga ega bo‘lishi:**
- pulpa kasalliklari bo‘lgan stomatologik bemorlarda hujjatlarni to‘ldirishni (043-4 shakl, 39-stom);
 - pulpa kasalliklari bo‘lgan stomatologik bemorlarda asosiy tekshirish usullarini o‘tkazishni (so‘rov, ko‘rik, zondlash, perkussiya, palpatsiya, tish qimirlashni aniqlash);
 - pulpa kasalliklari bo‘lgan stomatologik bemorlarda qo‘shimcha tekshirish usullarini o‘tkazishni (termodiagnostika, EOD, rentgenodiagnostika);
 - pulpiti etiologiyasini, klinikasini, qiyosiy tashxisini;
 - pulpa kasalligini davolashda tildiz plomba ashyosini tanlashni **bilishi va ularidan foydalana olishi;**
 - mo‘miyolashiruvchi bog‘lam qo‘yish
 - vital eksterpatsiya usulini o‘tkazish;
 - devital amputatsiya usulini o‘tkazish;
 - devital eksterpatsiya usulini o‘tkazish;
 - sut tishlar toj pulpasini amputatsiya qilish;
 - tish toj pulpasi amputatsiyasidan so‘ng 3 qatnovda mumifikatsiya bog‘lam va doimiy plomba qo‘yish;
 - tish ildizi kanallariga tibbiy ishlov berib, plomba materiali bilan to‘ldirish;

- karies kovaklarini plombalash malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak.
- 3. Asosiy qism**
- 3.1. Fandagi ma‘ruza mashg‘ulotlari mazmuri va mazmuni, tashkil etish bo‘yicha umumiy tavsiya va ko‘rsatmalar:**
- 7-semestr**
- 1-mavzu. Bolalarda tishlar kariesi. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, o‘ziga xos xususiyatlari.** Sut tishlari kariesi. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, o‘ziga xos klinik kechishi, qiyosiy tashxisi. Yuza, o‘rta va chuqur kariesning o‘ziga xos klinik kechishi. Sut tishlari kariesining qiyosiy tashxisi.
- 2-mavzu. Bolalarda tishlar kariesi davolash yo‘llari va davolash paytidaagi sodir bo‘ladigan asoratlari.** Sut va doimiy tishlar kariesini davolash. Bolalarda o‘rta va chuqur kariesni davolashdagi o‘ziga xos xususiyatlar. Sodir bo‘ladigan asoratlar va ularni oldini olish va bartaraf qilish yo‘llari.
- 3-mavzu. Bolalar yoshida uchraydigan tish qattiq to‘qimalari nokaries gipoplaziya, flyuroz kasalliri, nasidan-nasiga beriluvchi, irsiy kasalliklari.** Tasnifi, tashxisi, davosi. Bolalar yoshida uchraydigan tish qattiq to‘qimalari nokarioz kasalliklari. Emal gipoplaziyasi. Klinik shakllari, davolash usullari. Sistemali gipoplaziyaning klinik belgilari. Mahalliy va o‘choqli gipoplaziya. Flyuroz shakllari, klinik belgilari.
- Gipoplaziya xasalliklarining zamonaviy davolash usullari. Profilaktikasi. Irsiy xususiyatga ega bo‘lgan tish qattiq to‘qimalari nokarioz kasalliklari. Tugallanmagan amelogenez. Tugallanmagan dentinogenez. Tugallanmagan odontogenez (Steynton-Kapdepon sindromi). Zamonaviy davolash usullari.
- 8 semestr**
- 4-mavzu. Sut va doimiy tishlar pulpiti. Etiologiyasi, patogenezi, o‘ziga xosligi.** Pulpitar tasnifi, etiologiyasi, patogenezi. Bolalarda o‘tkir pulpitarining o‘ziga xos xususiyatlari. Har xil yoshda kechadigan o‘tkir o‘choqli pulpitarining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘tkir umumiy pulpitarining o‘ziga xos klinik kechishi. Pulpada yallig‘lanish jarayoni mexanizmi. Bolalarda kechadigan surunkali pulpitarining o‘ziga xos klinik xususiyatlari. Pulpitarni keltirib chiqaruvchi sabablar. Kasallikning profilaktikasi.
- 5-mavzu. Sut va doimiy tishlar pulpitarini davolash usullari.** Surunkali fibroz, gangrenoz, gipertrofik pulpitar. O‘tkirlashgan surunkali pulpitar. Bolalarda kechadigan pulpitarini davolashning o‘ziga xos xususiyatlari. Davolashning biologik usuli. Vital va devital amputatsiya usuli. Vital va devital eksterpatsiya usuli.

<p>6-mavzu. Sut va doimiy tishlar periodontiti. Etiologiyasi, patogenezi, o'ziga xosligi. Sut va doimiy tishlar periodontitlarni davolash usullari. Surunkali periodontitlarning subektiv va obektiv klinik belgilari. Surunkali periodontitlarni qiyoslab tashxislash. Surunkali cho'qqi periodontitlarda rentgenologik tekshirishlar natijalarini tahlil qilish. O'tkir periodontitlarning joylashgan joyiga qarab klinik kechishi va tashhisi. O'tkir cho'qqi periodontitning o'ziga xos klinik manzarasi. O'tkir periodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir va surunkali periodontitlarni davolash usullari. O'tkirlashgan surunkali periodontitlarni davolash. Kasallikning profilaktikasi.</p> <p>3.2. Fandagi amaliy mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:</p> <p>3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:</p> <p>7-semestr</p> <p>1-mavzu: Sut tishlar kariesi, uning o'ziga xos klinik kechishi, qiyosiy tashhisi</p> <p>2-mavzu: Sut tishlar kariesi, uning o'ziga xos davolashi. Sut tishlar kariesini davolashda sodir bo'ladigan asoratlardan ularni bartaraf qilish</p> <p>3-mavzu: Emal gipoplaziyasi va flyuoroz. Klinik shakllari, tashhisi va davolash usullari</p> <p>4-mavzu: Irsiy xususiyatga ega bo'lgan tish qattiq to'qimalari nokaries kasalliklari. Klinik belgilari, tashhisi va davolash usullari (amelogenez)</p> <p>5-mavzu: Irsiy xususiyatga ega bo'lgan tish qattiq to'qimalari nokaries kasalliklari. Klinik belgilari, tashhisi va davolash usullari (dentinogenez, odontogenez)</p> <p>8-semestr</p> <p>6-mavzu: Bolalarda o'tkir va surunkali pulpitlarning o'ziga xos klinik xususiyatlari va tashhisi.</p> <p>7-mavzu: Bolalarda kechadigan pulpitlarni davolashning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>8-mavzu: O'tkir va surunkali periodontitlarning o'ziga xos klinik kechishi, qiyosiy tashhisi.</p> <p>9-mavzu: O'tkir va surunkali periodontitlar tashhisi, qiyosiy tashhisi. Surunkali periodontitlar rentgen tahlili.</p> <p>10-mavzu: O'tkir va surunkali periodontitlarni shakllanmagan sut va doimiy tishlarda davolash paytida va davolangandan so'ng sodir bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlardan</p>	
---	--

<p>3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilindi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish; - O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish; - Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash; - Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash. <p>3.2.3. Fanni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:</p> <p>Fan davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:</p> <p>Bolalar kariesologiyasi moduli bo'yicha klinik o'quv amaliyoti o'tish davrida talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan:</p> <p>7-semestr:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'choqli demineralizatsiyani aniqlash 2. Kariyes kovagini charxlab shakllantirish; 3. Kariyes kovagiga tibbiy ishlov berish; 4. Kariyes kovaklarini plombalash. <p>8-semestr:</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Sut va doimiy tishlar pulpasini o'ldiruvchi yoki mo'riyolashitiruvchi pastalardan bog'lan qo'yish; 6. Sut tishlar toj pulpasining amputatsiyasi; 7. Tish toj pulpasi amputatsiyasidan so'ng 3 qatnovda mo'riyolashitiruvchi bog'lan va doimiy plomba qo'yish; 8. Tish ildizi kanallariga tibbiy ishlov berib, plomba material bilan to'ldirish; <p>Fan davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:</p> <p>UK 1.1. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;</p> <p>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;</p> <p>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar</p>	
--	--

uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UKK 12. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini davolash va profilaktika standartlari talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik.

UKK 1. Stomatologik qurilma bilan ishlash (yoqish, nakonechnik mahkamlash, nakonechnikka turli xildagi rotatsion qurilmalarni mahkamlash).

UKK 2. Stomatologik muolajalar uchun asbob uskunalar tanlash.

UKK 3. Og'iz dahlizi va og'iz bo'shlig'i ko'rigi.

UKK 4. Klinik instrumental tekshiruv va turli shakldagi tish kariyeslarini aniqlash

UKK 6. Periodont kasalliklarida o'tuv burmasini paypaslash.

UKK 7. Dog' bosqichidagi kariyesda remineralizatsiyalovchi davo.

UKK 11. Fantomlarda sun'iy dentindan vaqincha plomba qo'yish.

UKK 12. Fantomlarda karioz bo'shliqqa medikamentoz ishlov berish.

UKK 13. Fantomlarda karioz bo'shligini quritish.

UKK 14. Fantomlarda ajratuvchi taglik qo'yish.

UKK 15. Fantomlarda davolovchi taglik qo'yish.

UKK 18. Karioz bo'shligini kompozitsion plomba ashyosi bilan plombalash.

UKK 21. Stomatologik hujjatlarni to'ldirish qoidasi

UKK 22. Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirish

UKK 23. Karioz dog'ni metilen ko'kining 2% li suvli eritmasi bilan bo'yash

UKK 30. O'rta kariyesni davolash

UKK 68. Pulpitni davolashning biologik usulini o'tkazish

UKK 69. Vital amputatsiya o'tkazish texnikasi

UKK 70. Vital ekstripsiya usulini o'tkazish texnikasi

UKK 72. Devital amputatsiya usulini o'tkazish texnikasi

UKK 73. Devital ekstripsiya usulini o'tkazish texnikasi

UKK 76. Periodontitli tishlarda pulpa chirindisini antiseptiklar ostida bosqichma – bosqich olib tashlash

UKK 77. Har xil bosqichdagi o'tkir cho'qqili periodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish

UKK 92. Dental rentgen tasviri olish.

Fan davomida o'quv klinik amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Bolalar kariyesologiyasi moduli bo'yicha klinik amaliyot ta'lim jarayonining 50%ni tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar "Stomatologik kasalliklar profilaktikasi" kafedrasida va poliklinikasida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabalar tanishtiriladi.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmalar orqali namoyish etiladi, algoritim asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulajalar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyin umumlashtirgan holda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam va videofilmlari, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulajaylar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'riyladi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngira muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda

<p>qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi. Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitayotgan talabani amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.</p> <p>4. To'rtinchi bosqich – xulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi. To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.</p> <p>Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabani amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda moduli o'zlashtirgan hisoblanadi.</p> <p>4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>4.1. <i>Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:</i></p> <p>7-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tish emalida kechadigan mineralashuv jarayoni va uning buzilish sabablari 2. Emal mineralizatsiyasi, emal demineralizatsiyasi, emal remineralizatsiyasi shart-sharoitlari 3. Nasidan-nasiga beriluvchi, irtsiy xususiyatga ega bo'lgan nokariyes kasalliklar 4. Tugallanmagan amelogenez, tugallanmagan dentinogenez, tugallanmagan odontogenez 5. Sut va tildizi shakllanmagan doimiy tishlar pulpa to'qimasining struktura tuzilishi va himoya qobiliyati 6. Pulpa to'qimasining hujayraviy tuzilishi 	
--	--

<ol style="list-style-type: none"> 7. Pulpa to'qimasining mexanik va immunobiologik himoya vazifasi 8. O'tkir va o'tkirlashgan surunkali periodontlarda umumiy ahvol o'zgarishi va uni bartaraf qilish 9. O'tkir periodontlarda umumiy ahvol tavsifi. O'tkir periodontlarda og'riqsizlantirish. Umumiy zaharlanish belgilarini bartaraf qilish <p>8-semestr</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sut tishlari periodontitlarini davolashda ishlatiladigan zamonaviy plomba ashyolari 2. Endodontiya (ildiz kanallarini to'ldirish uchun) plomba ashyolari 3. Tishlar toj qismini restavratsiyasi uchun ishlatiladigan zamonaviy plomba ashyolar 4. Sut tishlar periodont to'qimasi strukturasining bolalar yoshida o'zgarishi va ularda kechadigan periodontitlar klinik kechishi bilan bog'liqligi 5. Periodont to'qimasining shakllanishi, immunobiologik himoya vazifasi 6. Periodont to'qimasidagi struktura o'zgarishlarning yallig'lanish jarayoni bilan bog'liqligi 7. Sut va shakllanmagan doimiy tishlar periodontitlarining o'ziga xosligi. Periodontitlar tasnifi. 8. Periodontitlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlar. 9. Periodont yallig'lanish jarayonining rivojlanish bosqichlari. <p>4.2. <i>Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:</i></p> <p>Bolalar kariyesologiyasi moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha ayrim mavzularni mustaqil o'zlashtirish; - tarqatma materiallar bo'yicha matruzalar qismini o'zlashtirish; - avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash; - maxsus adabiyotlar bo'yicha modullar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; - yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni 	
---	--

<p>o'rganish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan modullar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish; - faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; axborot (referat, prezentatsiya, multimediyalar) tayyorlash; - ilmiy maqola va ilmiy anjumanlarga matruza tayyorlash. <p>4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Mustaqil ishini bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.</p> <p>Talaba mustaqil ishini vazifalari quyidagilardan iborat: yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash; - axborot manbalarini va manzillaridan samarali foydalanish; - a'loqaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash; - Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish; - berilgan topshiriqning rasional yechimini belgilash; - ma'lumotlar bazasini tahlil etish; - ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash; - topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish; - muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - ishlab chiqilgan yechim, loyha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish. <p>Kurs ishi (loyihasi) ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida ko'zda tutilmagan.</p> <p>O'qitish natijalari:</p> <p>Modulni yakunlaganda talaba biladi:</p> <p>1. Bolalarda sut va doimiy tishlarida kariesga xos ob'ektiv va sub'ektiv</p>	
---	--

<p>belgilarni aniqlashni.</p> <p>2. Sut tishlar o'tkir va surunkali pulpitlariga xos ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni aniqlashni, qiyosiy tashxis o'tkazishni, klinik va rentgenologik belgilar asosida aniq tashxis qo'yishni.</p> <p>3. Bolalarda shakllanmagan ildizli sut va doimiy tishlar davolash rejasini tuzishni amputasiya va eksteptasiya kadamlarini.</p> <p>4. Bolalarda sut va doimiy tishlarda kechuvchi o'tkir, surunkali va o'tkirlashgan periodontitga xos ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni aniqlashni.</p> <p>5. Bolalarda sut va doimiy tishlarida o'tkir va surunkali periodontitlarni davolashni.</p> <p>6. Bolalarda emal gipoplaziyasi - kasalliklariga xos ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni aniqlashni. Qiyosiy tashxis o'tkazishni. Klinik ob'ektiv va sub'ektiv belgilar asosida aniq tashxis qo'yishni.</p> <p>7. Bolalarda emal flyuoroz kasalliklariga xos ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni aniqlashni. Qiyosiy tashxis o'tkazishni. Klinik ob'ektiv va sub'ektiv belgilar asosida aniq tashxis qo'yishni.</p> <p>8. Bolalarda emal gipoplaziyasi va flyuoroz kasalliklariga xos davolash o'tkazishni.</p> <p>9. Bolalarda tugallanmagan amelogenoz, dentinogenoz, odontogenoz - tasnifi, tashxisi, klinik xususiyatini.</p> <p>10. Irsiy xususiyatga ega bo'lgan tish qatig to'qimalari va nokarioz kasalliklarini zamonaviy davolash usullarini.</p> <p>Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:</p> <p>7-semestr yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'choqli demineralizatsiyani aniqlash - Karies kovagini charxlab shakllantirish; - Karies kovagiga tibbiy ishlov berish; - Karies kovaklarini plombalash. <p>8-semestr yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Sut va doimiy tishlar pulpasini o'ldiruvchi yoki mo'miyolashituvchi pastalardan bog'lam qo'yish; - Sut tishlar toj pulpasining amputasiyasi; - Tish toj pulpasi amputasiyasidan so'ng 3 qatnovda mo'miyolashituvchi bog'lam va doimiy plomba qo'yish; - Tish ildizi kanallariga tibbiy ishlov berib, plomba materiali bilan to'ldirish; <p>5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</p>	
--	--

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Xalilovl. X., Damirova SH. B., MuxamedovaM. S., Sh. M. Razzogov. Bolalar kariesologiyasi, O'q'uv q'o'llanma. Toshkent. 2018 y.
 2. Xalilov I.X., Damirova Sh.B. i dr. Fakultetskaya detskaya terapevicheskaya stomatologiya, Uchebnoe posobie. Tashkent. 2015 g.
 3. Xalilov I., Rahmonov H.SH., Murtazaev S.S., Muxamedova M.S. Bolalar terapevtik stomatologiyasi, Darslik. Toshkent. 2015 y.
 4. Murtazaev S.M., Murtazaev S.S. Bolalar fakultet terapevtik stomatologiyasi. O'q'uv qo'llanma, Toshkent. 2014 y.
 5. Xalilov I.X., Abdullayev J.R., Damirova Sh.B. va boshqalar. Bolalar fakultet terapevtik stomatologiyasi, Darslik. Toshkent. 2013 y.
 6. Xalilov I.X., Raxmonov X.Sh. va boshqalar. Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi, Darslik. Toshkent. 2011 y.
 7. Xalilov I.X. va boshqalar. Bolalar terapevtik stomatologiyasi. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi. Toshkent. 2006 y.
- ### 5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:
1. Borovskiy E.V. Terapevicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2008 g.
 2. Persin L.S. Stomatologiya detskogo vozrasta, Uchebnik. Moskva. 2003 g.
 3. Borovskiy E.V. Terapevicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2002 g.
 4. Kuryakina N.V. Terapevicheskaya stomatologiya detskogo vozrasta, Uchebnik. Moskva. 2001 g.
- ### 5.3. Internet saytlari:
1. www.ziynet.uz
 2. www.e-kutubxona.uz
 3. www.google.uz
 4. www.e-stomatology
 5. www.edentworld
 6. www.medlibrary
 7. www.pubmed.gov
 8. www.e-stomatology
 9. www.cochrane.org
 10. www.echolar.google.com

Modul dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida ishlab chiqilgan va
tastirlangan. Institut Kengashi bayonnomasi № 1 12
2024 yil «08»

Modul dasturi bo'yicha masullar:

Satullaev M.J.

QTT Stomatologiya kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi:

Kurbanazarov M K

Qoraqalpog'iston Tibbiyot
Institut Otorinolaringologiya,
Ofthalmologiya, Onkologiya ham
Medicinaliq radiologiya
kafedrasi mudiri phd.

Tashqi taqrizchi:

Annakulova G

Qoraqalpog'iston Respublikasi bolalar
stomatologiya poliklinikasi bo'lim
boshlig'i